


## «Bo'g'irsoq» ertagiga kompozitsiya yasash.

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un urvoq.  
Unni qoqib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar.  
Pishirdilar tovada,  
Sovitdilar havoda.  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketdim buvimdan.




## Rasmga qarab «Bo'g'irsoq va tulki» haykalini yasa.



O'qituvchi yordamida daraxtlar, gul, to'nka yasa va haykallarni  
to'g'ri joylashtir.


## TABIYIY MATERIALLAR BILAN ISHLASH




Barg




Danaklar




Archa  
g'uddasi



Uch  
yong'oq



Paxta chigiti




Yong'oq




Makkajo'xori so'tasi

**Bolalar!** Siz ustozingiz bilan sayrga chiqqaningizda archa g'uddalarini uchratgansiz. Bu g'uddalardan qiziqarli o'yinchoqlar yasash mumkin.




G'uddalarga pat, bargchalar yopishtir, plastilin va yelim yordamida o'yinchoqlar yasa.



### Topishmoq


To qorong'i bor ekan,  
Doim sergak yotaman.  
Qishlog'imni uyqudan,  
Tong otsa uyg'otaman.  
(Xo'roz)



Makkajo'xori so'tasidan ham turli o'yinchoqlar yasash mumkin. Buning uchun ish boshlashdan oldin makkajo'xori donlari terib olinadi.


### **Makkajo'xori so'tasini butunligicha yoki qirqib, bo'laklaridan turli o'yinchoqlar yasash**

1. Qo'y. O'yinchoqning kallasi uchun makkajo'xorining butun so'tasidan qirqib olinadi. Shoxlarni chig'anoqdan (yoki plastilindan) yasaymiz. Oyoqlari uchun shoxchalar ishlatiladi. Bo'laklar plastilin yordamida biriktiriladi.



2. Yangi pishgan makkajo‘xori so‘tasi yumshoq bo‘lib, uni qirqish mumkin.

Shu usulda rasmdagidek o‘yinchoqlarni yasab ko‘r.




### Topishmoq

Bug‘doy emas, na sholi,  
Ipakdayin soqoli.  
Marvaridday oq doni,  
Ko‘p yaproqli har yoni.  
(Makkajo‘xori)

## QURIGAN DARAXT BARGLARIDAN GULDASTA TAYYORLASH

Guldasta yasash uchun akas daraxtining urug'i, quritilgan turli shakldagi barglar yig'iladi.

1. Shaklga qarab oldin «Ko'za» yasang.
2. «Ko'za» ichiga quritilgan barglardan guldasta yasang.



## YONG'OQ VA QOVOQ URUG'IDAN YASALGAN GULDASTA

1. Qalin qog'oz yoki kartondan asos tayyorlang.
2. Unga ikkiga ajratilgan yong'oqlarni yopishtirib, guldon hosil qiling.
3. Qovoq urug'idan gul hosil qiling (qovoq urug'ini bo'yab chiqish mumkin).



### YONG'OQ


*Omon Matjon*

Miya kabi shaklim bor,  
Boshim to'la aqlim bor.  
Meni yegan donishmand  
Bo'lur degan naqlim bor.



Ushbu devoriy bezak qovun urug'idan tayyorlangan.

### «Shaftoli gulladi» devoriy bezagi





Bunday devoriy bezaklarni yasab, Siz sinfingizni bezatishingiz yoki yaqinlaringizga sovg'a qilishingiz mumkin.





## QOG'UZ BILAN ISHLASH

Qog'oz bilan ishlaganda kerakli asbob va materiallarni esla!





### *Topshiriq:*



Rasmdagi asbob va material nomlarini ayt.  
Qaychi va yelim bilan ishlaganda xavfsizlik  
qoidalarini aytib ber.

## KARTON QOG'OZDAN KONVERT YASASH


1. Andoza bo'yicha karton qog'ozga konvertni chizib ol.





2. Buklash chizig'idan ichiga qarab bukla.



3. Buklangan joyga yelim surt va yopishtir.




4. Konvert ustini applikatsiya bilan beza.




## QOG‘OZ CHIZIMCHALARIDAN GILAMCHA TO‘QISH


1. Katak daftar varag‘ini 2 ga bukla.




2. Ikki katak oralatib qaychi bilan buklangan tomondan qirqi-ladi (qirqqanda oxiridan ikki katak kesilmaydi).



3. Rangli qog‘ozdan 1 sm qa-linlikda chizimchalar kes.



4. Katak varaq ustida namu-naga qarab naqsh hosil qil.




## HISOBLASH MATERIALLARI TAYYORLASH

**Bolalar!** Siz rangli qog'oz va karton yordamida matematika darslari uchun hisoblash materiallari tayyorlashingiz mumkin.

Buning uchun turli sabzavot, mevalar rasmini andoza yordamida kartonga chizish va uni qirqib olish kerak.


Keyin xuddi shu rasmni rangli qog'ozga tushirib, uni kartonga yopishtiring.

Hisoblash materiallarining bo'yi 10–15 sm, eni 5–6 sm bo'lsa, ishlatishga qulay bo'ladi.



## KARTON QOG'OZDAN DO'PPI YASASH

1. Karton qog'oz ustiga andoza ni joylashtir.
2. Andoza atrofini nuqtalar yordamida belgilab chiq.
3. Belgilangan joydan qirg.
4. Qog'ozni buklash chizig'idan bukla.
5. Buklangan qog'oz bo'lagiga yelim surt.
6. Do'ppi bo'laklarini yelimla.




7. Do'ppini naqshlar bilan beza.

### Do'ppi naqshlari andozasi



#### Topishmoq

Guli to'rtta yarim oy,  
Boshginamdan olar joy.  
(Do'ppi)




*Po'lat Mo'min*

## **PAXTA QO'SHIG'I**

Oltin paxta – oq paxta,  
Biz senga inoq paxta.  
Hosiling mo'l bo'lganda,  
Hammamiz quvnoq paxta.  
Kuzda baland xirmonda,  
Tovlanasan har yonda.  
Hosiling oshar doim,  
Bizning O'zbekistonda.



## **QOG'UZ, KARTON VA PAXTADAN PAXTA YASASH**



1. Andoza yordamida karton qog'ozga paxta ko'sagini chiz va qirqib ol.
2. Rangli qog'ozdan barg va shoxlarni xuddi shunday shaklda qirq.
3. Karton qog'ozga rangli barg va shoxlarni yelimla.
4. Paxta chanog'ini jigarrang qog'ozdan kesib olib asosga yopishtir.
5. Asosdagi paxta o'rniga yelim surt va ustiga paxta qo'yib barmoqlaring bilan ohista yopishtirib qo'y.

Erkin Vohidov

## ARCHA

Men archaman,  
Archaman.  
Men xursandman  
Barchadan.  
Atrofimda  
Aylanib,  
Hech charchamang,  
Charchamang.



## HAJMLI ARCHA O'YINCHOQLARINI YASASH




1. Rangli qog'ozni andoza yordamida 4 ta bo'lakka (bo'laklar doira shaklida yoki boshqa shaklda) kesib olinadi.

2. Har bir bo'lakning rangli tomoni ichiga qilinib, o'rtasidan buklanadi.

3. Har bir bo'yalmagan qismning yarmiga yelim surtiladi va ikkinchi bo'lakning bo'yalmagan yarmi yopishtiriladi.

4. Shu tariqa hamma bo'laklar bir-lashtirilib chiqiladi.

5. Yopishtiriladigan yarim bo'laklar o'rtasiga ilmoq joylashtiriladi. (Agar bo'laklar katta bo'lsa, har bir bo'lakni applikasiya bilan bezash mumkin.)





## YOZUV QOG‘OZIDAN QOR PARCHALARI YASASH

Bolalar, rasmga qarab qor parchalari qanday yasalishini ko‘rib chiqing.

O‘qituvchingiz bergan andoza yordamida qor parchalari yasang.


1. To‘rtburchak shaklidagi yozuv qog‘ozini 4 ga buklab, uchburchak hosil qiling.
2. Uchburchakni yana rasmda ko‘rsatilganidek buklang.
3. Andozani qo‘yib chizib oling.
4. Qaychi yordamida chiziq bo‘ylab qirqing. Qog‘oz buklovlarini ohista oching.

Qor parchasi tayyor.






## YUK MASHINASINI RANGLI QOG‘OZDAN APPLIKATSIYA USULIDA YASASH



1. Rasmni diqqat bilan ko‘rib chiq.
2. Unda qanday geometrik shakllar ishlatilgan?
3. Andoza yordamida mashina bo‘laklarini chiz va qirqib ol.
4. Bo‘laklarni rasmdagidek yelimla.
5. Mashina g‘ildiraklarini oxirida yelimla.



### *Savol va topshiriq:*



1. Mashina yasashda qanday shakllar ishlatilgan?
2. Nechta to‘rtburchak, nechta aylana bo‘lagi borligini ayt.



### *Topishmoq*


Bor uning to‘rt oyog‘i,  
Oynaband hamma yog‘i.  
Ushlasa ikki qo‘llab,  
Yuguradi-yeladi.  
Bir qo‘lin olsa bormi,  
To‘xtaydi-yu qoladi.

*(Mashina)*




## «BAHOR KELDI» APPLIKATSIYASINI YASASH

Qo'llarida soz bilan,  
Gul-g'uncha pardoz bilan,  
Silkinib parvoz bilan,  
Uchib turna, g'oz bilan,  
Qadrdon bahor keldi.



Bahorni kuting bog'da,  
Bog' emas, dala, tog'da,  
Maysa yashnagan chog'da,  
Qushlar sayrar bu tog'da,  
Sevikli bahor keldi.



Rasmga qarab applikatsiyani bajar.



Gul



Barg




Qanot



**TEKIS QOG'UZ BO'LAGIDAN  
HAJMLI O'YINCHOQLAR YASASH**

**«Jo'ja» o'yinchog'ini yasash.**


Tumshug'i




Qanoti




Dumi





Boshi



Tanasi




Taglik




**«Mushukcha» o'yinchog'ini yasash.**



Tanasi



Boshi




Dumi



## QOG‘OZ O‘RAMIDAN HAJMLI O‘YINCHOQLAR YASASH

«Quyuncha» o‘yinchog‘ini yasash.



*Ilyos Muslim*

### QUYON




Hoy quyon, oppoq quyon,  
Kel, men bilan o‘ynagin.  
Chopqillab u yon, bu yon,  
Bog‘chamizda quvnagin.

Yotsirama o‘zingni,  
Bog‘da yayrab daming ol.  
Senga ochay ko‘ksimni,  
Quyonjon, kel-kelaqol.


## BAYRAM TABRIKNOMASI VA TAKLIFNOMALAR YASASH

### *Tabriknoma*

1. Qog'oz varag'ini  
ko'ndalangiga bukla.




2. Rangli qog'ozdan «8»  
raqamini kesib ol.



3. Buklangan qog'oz ustiga  
raqamni yopishtir.




4. Tabriknomani gullar bilan  
bezat.




## Taklifnoma

1. Qog'oz varag'ini ikkiga bukla.



2. Ustki varaqni gul (lola, gullagan daraxt shoxi) bilan beza.




3. Yaltiroq qog'ozdan «Navro'z» so'zini o'qituvching yordamida qirqib taklifnoma ustiga yopishtir.




## KARTON QOG‘OZ VA GAZLAMA YORDAMIDA IGNA TO‘G‘NASH UCHUN MOYCHECHAK GULINI YASASH


1. Karton qog‘ozdan andoza yordamida moychechak gulini yasa.



2. Karton gul o‘rtasiga paxta yopishtir.



3. Sariq rangli gazlamadan gul o‘rtasini dumaloq shaklida qir-qib, paxtaning ustiga qo‘y va chetlarini yelim bilan yopishtir.




4. Oq qog‘ozga andoza yordamida gulni chizib ol va qirq. Tayyor bo‘lgan gul shaklini karton ustiga yopishtir.


# KARTON QOG‘OZDAN UY JIHOZLARI YASASH

## Xontaxta


1. Andoza yordamida xontaxta chizmasini chiz.




2. Belgilangan joyidan qog‘ozni bukla.



3. Xontaxta oyog‘ining bir tomoniga yelim surtib, ikkinchi tomoniga yopishtir.




4. Ustiga boshqa rangli qog‘ozdan chetlarini 1 sm.dan kengroq qirqib olib, yopishtirib qo‘y.





## GUGURT QUTISIDAN O'YINCHOQLAR YASASH




### Topishmoq

Yog'och uyda tengqur o'rtoq,  
Bizga doim ko'ksin ochar.  
Ishlatsangiz «labbay» deya,  
Qalpog'idan shu'la sochar.

(Gugurt)

# GAZLAMA BILAN ISHLASH

## GAZLAMA BILAN ISHLAGANDA KERAKLI MATERIALLAR VA ISH JOYINI TASHKIL ETISH



Angishvona




Qaychi




Igna



Iplar



To'qish uchun




Tikish uchun




### Maqollar

- Ish ustasidan qo'rqadi.
- Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.




To'g'nag'ich




### Topshiriq:



1. Turli uzunlikdagi ipni uzish va qirqishga doir mashqlar.



2. Iplarni bog'lash (ipni bog'lashning ikki xil usuli).



3. Ipni kalava qilib o'rash.




### O'yin:


Qog'oz g'altakka «kim tezroq ipni o'raydi?».

## IPDAN GUL HOSIL QILISH

1. Ipdan halqa hosil qilib gul yasash.



2. Karton halqachalarga turli rangdagi iplarni o'rab gul hosil qilish.





## IPDAN BOG'LAMLAR QILIB, UNDAN TURLI MEVA VA SABZAVOTLARNI HOSIL QILISH




### Ip bog'lamlaridan odam qomatini yasash (qo'g'irchoq)

Rasmga qarab ip va arqon yordamida qo'g'irchoqlar yasa.




### Ramka chetini bezash uchun ip o'ramidan foydalanish.

1. Ipdan soch o'rish.
2. Tayyor ramka chetiga yopishtirish.




## TURLI QALINLIKDAGI IP VA CHIZIMCHALAR YORDAMIDA DEVORIY BEZAK YASASH

1. Karton qog'ozdan asos tayyorla.
2. Asos chetiga chizimcha bilan bezak qilib chiq.
3. Turli rangdagi iplardan bir nechta pamponlar yasa.
4. Pamponlarni asos ustiga yopishtirib chiq.
5. Qalin ipdan soch o'ramini hosil qil.
6. O'ramlar bilan pannoni bezashni oxiriga yetkaz.




## KARTON HALQALARNI TURLI RANGDAGI IP BILAN O'RAB, DEVORIY BEZAK YASASH.

Rasmga qarab, halqalardan devoriy bezak yasang.




## IGNAGA IP O‘TKAZISH MASHQLARI

Yupqa kartonga oldindan tayyorlangan teshiklar bo‘ylab kashta tikish (ignani yuqoriga va pastga tikish).



1. Rasmni e'tibor bilan ko'rib chiq.
2. Rasmdagi kashta rangiga qarab rang tanla.
3. Ignaga ipni o'tkaz va tugun qil.
4. Kartondagi kashtani oldin bir tomonga keyin ikkinchi tomonga qarab tik.
5. Ish tugagach ipni mustahkamla.
6. Qaychi va igna bilan ishlaganda ehtiyot choralarini qo'lla.

Rasmdagi kashtani mustaqil bajarishga harakat qil.





1. Gazlamaning inson hayotidagi roli.
2. Gazlamaning turlari va ishlatish o'ri: ustki kiyimlar uchun gazlamalar, uchki kiyimlar uchun, kashta tikish uchun.

### Gazlamaning xususiyatlari va o'ziga xos tomonlari:

*qalin, yupqa, silliq, dag'alroq, g'ijimlanadi, yirtiladi, qirqiladi.*

### Gazlamaning o'ng va teskari tomoni.




Gulli gazlamaning o'ngi




Teskari




Sidirg'a gazlamaning o'ngi



Teskari




Sujetli gazlamaning o'ngi



Teskari

Gazlama gulsiz (sidirg'a) va gulli bo'lishi mumkin.



### Topshiriq:

Gazlamaga andoza (shablon) qo'yib, uchburchak yoki to'rtburchak shakllarini kesib olish (o'ng va teskari tomoni aniq ajratiladigan gazlama tanlanadi). Bu gazlamalarni kartonga yopishtirib, kolleksiya tuzish.




## TUGMA QADASH

Tugma kiyim bo'laklarini birlashtirib turish uchun kerak. Ular turli kattalikda bo'lishi mumkin.


Agar tugmang tushib ketsa, uni darrov tikib ol. Tugmani tikayotganingda tugma rangiga mos ip tanla.



**Rasmga qarab tugma qadashni o'rgan.**




**Tugmadan mana bunday narsalar tayyorlash mumkin.**




## QIYA AYLANMA CHOK

Qiya aylanma chok turini yupqa karton qog'ozda, oldindan belgilangan nuqtalar bo'yicha mashq qilish.




## QAYCHI UCHUN CHO'NTAK TAYYORLASH

Buyum povinol, kleyonka, banner, duxoba qog'oz yoki rangli karton qog'ozdan tikiladi. (Chok o'rni oldindan o'qituvchi tomonidan nuqtalar bilan belgilab beriladi.)



## IGNA UCHUN YOSTIQCHA

1. Qalin (movut, drap) gazladan yostiqcha bichish.
2. Yostiqcha chetlarini qiya aylanma chokda tikish.



## QO‘L CHOKLARI

Bolalar, gazlamadan biror buyumni tikish uchun biz qo‘l choklarini bilishimiz kerak.

### I .To‘g‘ri qaviq chok


Bu chok turi bezatuvchi chok sifatida va gazlama bo‘laklarini ko‘klash uchun qo‘llaniladi.

1. Gazlamaga chok o‘rnini belgila (gazlama ipini sug‘ur yoki qalam bilan chizib ol).
2. Rasmga qarab to‘g‘ri qaviq chokli tikishni o‘rgan.




### II. Igna ortga usulidagi qaviq chok

1. To‘g‘ri qaviq chokning orasini bir xil qilib tik.
2. Ignani orqasiga qaytarib chok orasini to‘ldirib, qaviq chokda tik.




### III. Suv choki

Suv choki chapdan o‘ngga qarab yoki pastdan yuqoriga qarab tikiladi. Tikayotganda ip ignaning bir tomonida turishi kerak. Chok kattaligi bir xilda bo‘lishiga e‘tibor ber.




**Bolalar,** Sizlar bilan bir necha chok turlarini o'rgandik. Bu choklar orasidan boshqa rangdagi ip bilan bezak chok hosil qilish mumkin.



To'g'ri qaviq chok oralig'idan boshqa rangdagi ipni halqa qilib «ilon izi» hosil qilish.



To'g'ri qaviq chok oralig'idan boshqa rangdagi ipni o'tkazib «To'lqin» hosil qilish.



Dastro'mol chetini suv choki bilan bezash.



## YORDAMCHI MAKTABDA QO‘L MEHNATI DARSLARINING AHAMIYATI

Bolaning har tomonlama rivojlanishida mehnat tarbiyasi asosiy omil bo‘lib, uning aqliy, jismoniy va ma‘naviy kamol topishiga xizmat qiladi.

Mehnat jarayonida bolaning bilim darajasi, ijodiy qobiliyati o‘sadi, unda o‘z ishini rejalash, qilgan ishini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish uquvi paydo bo‘ladi.

Qo‘l mehnati yordamchi maktab o‘quvchisini umumiy kasb-hunarga tayyorlashning dastlabki bo‘g‘ini hisoblanadi va quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:

1. Bolada mavjud bo‘lgan ruhiy-jismoniy kamchiliklarni korreksiyalash va insonga mehnat faoliyatida zarur bo‘ladigan fazilatlarni tarbiyalash;
2. O‘quvchini kasb-hunar egallashga tayyorlash;
3. Bolalarda ijodiy qobiliyat, badiiy did va tasavvurlarni o‘stirish;
4. O‘quvchilarni xalq amaliy san‘ati asarlari go‘zalligini his qila olishga o‘rgatish;
5. O‘quvchilarni o‘z ish joylarini ozoda tutishga, ish asboblardan to‘g‘ri foydalanishga, ularni asrab-avaylashga o‘rgatish.

Qo‘l mehnati darslarining aqli zaif o‘quvchidagi ruhiy, jismoniy kamchiliklarini bartaraf qilishda juda katta o‘rni bor. Bu darslarda yordamchi maktab o‘qituvchisi bolaning bor aqliy va jismoniy imkoniyatlarini ishga solishga sharoit yaratishi kerak. Buning uchun mehnat jarayonida zarur bo‘ladigan dastlabki aqliy faoliyatni shakllantirish lozim. Mehnat uchun kerakli materialning sifati va xususiyatini tahlil qilish, asboblarni ajrata olish, tayyorlangan buyumni namuna bilan solishtirish va shu asosda sodda, umumlashtiruvchi xulosalar yasash, savollarga javob berish, qilingan ishga bosqichlar bo‘yicha hisobot bera olish, o‘qituvchining yo‘riqnomasi bo‘yicha ishlash kabilar mehnat jarayonida aqliy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mehnat faoliyati samarali bo‘lishi uchun bolaning yoshi, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Yordamchi maktab o‘quvchisiga mustaqil ishlash faoliyatining chegaralanganligi xos bo‘lib, o‘qituvchi bolaning faoliyatini boshqarib turadi. O‘qituvchi bolaga ishni qanday tashkil etishni, ishni nimadan boshlashni u yoki bu operatsiyani qanday bajarishni o‘rgatib borishi, shu



bilan birga bola har bir ish bosqichini mumkin qadar ongli qabul qilishiga erishmog'i lozim. Bu bolani o'z kuchiga ishonch tuyg'usini uyg'otadi, o'z imkoniyatlariga baho berishga o'rgatadi. Mehnatga o'rgatishning ilk qadamlaridayoq bolani mustaqil ishlashga o'rgatib borish talab etiladi. 1-sinfda agar o'qituvchi bolaning barcha faoliyatini boshqarib borgan bo'lsa, keyingi sinflarda sekin-asta bu yordamni qisqartirib boradi.

Qo'l mehnati darslari yordamchi maktab o'quvchisini kasb-hunarni o'rgatishga tayyorlashi kerak. Bu tayyorgarlik mehnat madaniyatiga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat bo'lib, bular ishni tashkil qilish (ish joyini tashkil qilish, u joyni tartibli saqlash, boshlagan ishni oxiriga yetkazish), ish asboblarini asrab-avaylash, xomashyo mahsulotlarni tejash, ishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, sodda o'lchov asboblaridan foydalanish, ish vaqtini qadriga yetish kabilardir.

Qo'l mehnati darslarining vazifasi o'quvchida mavjud bo'lgan ruhiy-jismoniy kamchiliklarni korreksiyalashgina bo'lmay, balki bolaning barcha his qilish organlarini rivojlantirishi ham kerak. Shu orqali bolani tevarak-atrofni anglash, his qila bilishi, tasavvuri kengayib boradi.

Qo'l mehnati darslarida estetik tarbiyaga oid ishlar muntazam olib borilishi lozim. Bolalar buyumni go'zalligi, materialning sifatini his qilishlari kerak. Bolaga tushunarli tarzda ishga beriladigan bahoning asosiy mezonini buyumning pishiqligi, chiroyliligi, ishning unumli ekanligi ta'kidlab borilishi kerak. O'qituvchi har bir mavzuni o'tishida buyumning qanday estetik jihatiga e'tiborni qaratishni belgilab olishi lozim.

Yordamchi maktab o'quvchisini mehnatga o'rgatish uchun uning ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga tayyorlash kerak. Bola biror buyumni tayyorlash jarayonini to'liq eslab qola olmaydi. Shu tufayli har qanday ish alohida tushuntirilib, bajarilayotgan vazifa bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'qituvchi har bir darsda bolani mehnatga qiziqtirib borishi, bolani o'z kuchiga ishonch hissini uyg'ota olishi talab etiladi.

Qo'l mehnati darslarida korreksion maqsadga erishishda o'qituvchi mahorati uning qanday ish usullardan foydalanishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchi defektolog o'z predmetini yaxshi bilishi, materialni puxta tayyorlab olishi lozim. Bolaning ish qobiliyati va diqqatini saqlash uchun quyidagilarga e'tibor berishi kerak: bolaga bir xil va kuchi (imkoni) yetmaydigan ish bermaslik, ishda oddiydan murakkabga tomon borish, bajarilayotgan ishni bosqichma-bosqich, oz-ozdan bajarish, bolani doimo ishga qiziqтира borish, bundan tashqari o'qituvchi o'zi doimo bolaga e'tiborli va namuna bo'lishi kerak. Yordamchi maktab o'quvchisining mayda qo'l muskullari zaif rivojlangan, harakat koordinatsiyasi buzilgan bo'ladi. Shu tufayli



doimo asbob va moslamalar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga e'tiborni qaratish zarur. Ish orasida barmoqlarni koordinatsiyasiga yordam berishi kerak.

Bolada mehnatsevarlikni tarbiyalashda mehnat – bu ma'lum kuch, chidam harakat ekanligini hisobga olish kerak. Har doim bolaga yengil, oson vazifa berish, bolani yalqov qilib qo'yadi. Shuning bilan birga, haddan ziyod qiyin berilgan vazifa ham bolani toliqtirib, ishdan sovitishi, bolaga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Qo'l mehnati dasturidagi deyarli barcha ishlar dars davomida amalga oshiriladi, shu tufayli yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining rahbarligi muhim o'rin egallaydi. Darslarni qiziqarli, samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashuvi, didaktik material, qo'shimcha adabiyotlar, ilg'or pedagoglarning ish tajribasidan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Tavsiya qilinayotgan o'quv qo'llanmasida o'qituvchilarga darsni rejalashtirish, qo'l mehnati darslarining mazmuni, uni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan umumiy uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Amaldagi dasturga muvofiq «Qo'l mehnati» kursini quyidagi bo'limlarga ajratamiz:

1. *Tayyorlov davri (1-sinfda).*
2. *Qog'oz bilan ishlash.*
3. *Loy va plastilindan buyumlar yasash.*
4. *Tabiiy materiallar bilan ishlash.*
5. *Ip va gazlama bilan ishlash.*
6. *Yog'och va metall bilan ishlash.*

### **Tayyorlov davri**

1-sinfning 1-choragida dastlabki 2 hafta davomida o'tiladi. Tayyorlov davrida bolaga ranglarni va geometrik shakllarni farqlash o'rgatiladi. Hajm to'g'risida tushuncha beriladi. Bu o'rinda, tekis va hajmli jismlarning shakli to'g'risida suhbat va o'yinlar o'tkazish mumkin. Darsga hajmli predmetlar – koptok, plastmassa, kubiklar, o'yinchoq sabzi, olma va yassi predmetlar – barglar, kvadratlar shaklidagi qog'oz, geometrik mozaikadan tayyorlangan yassi figuralar tayyorlanadi. Bu predmetlarning geometrik shakli bir-biriga muvofiq bo'lishi kerak. O'qituvchi geometrik shakllarga o'xshash hajmli predmetlarni topishini taklif qiladi (shar – olma, kvadrat – kub), ularning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini tushuntiradi. Hajmli buyumlarni aylantirib, ushlatib ko'rsatadi, tayyorlov davrida o'qituvchi o'quvchilarni maktab hovlisiga olib chiqishi, ularga tevarak-atrofnı kuzatishni o'rgatishi, barglarga, gullarga e'tiborni qaratishi mumkin. Shuningdek, bu

darslarda yuqori sinf o'quvchilari tomonidan bajarilgan ishlardan namunalar ko'rsatish tavsiya etiladi.

Loy va plastilindan buyumlar yasash qo'l mehnati darslari salmoqli o'rin egallaydi:

Sinflar	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	Yil davomida
1-sinf	5	3	4	4	16 soat
2-sinf	4	3	6	4	17 soat

### **Loy va plastilindan buyumlar yasash mavzusining sinflar bo'yicha taqsimlanishi**

Loydan va plastilindan buyumlar yasash darslarida aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni rivojlanishi o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Buyumni idrok etish asosida o'quvchi ongida obraz shakllanadi. U o'yinchoqlar yasashda o'zining real ko'rib turgan narsasini ifodalaydi, predmetning bir tomonini emas, to'lig'icha hajmini aks ettiradi. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash, rasm chizish yoki applikatsiya ishlashga qaraganda ikki qo'l bilan siypalab, tabiiy zehni rivojlantiradi. Shu tufayli, bolalar tasvirlash usullarini tezroq o'zlashtirib oladilar, natijada bolalar ijodkorligi rivojlanadi.

Darsda bolalarga xalq ustalari tomonidan yaratilgan, loydan yasalgan buyumlarni namoyish qilib, bu buyumlarni tahlil qilish, shaklga, bo'yoqlarga, naqshlarga e'tiborni qaratish foydalidir.

Amaliy san'at namunalari go'zal, ta'sirchan, bolaga tushunarli, sodda va tevarak-atrofnı o'zida oddiy tarzda aks ettiradi. Bu buyumlar bilan tanishish bolaning ijodiy qobiliyatini shakllantiradi, estetik didini tarbiyalaydi.

2-sinfda bolalarni haykaltaroshlik asarlari bilan tanishtirish mumkin. Bu yoshdagi bolalar shakl qiyofasini tushuna boshlaydilar. Shuning uchun haykallarni ko'rishda bolalarni qo'l harakatlari bilan bir hajmning ikkinchi hajmga o'tish chizig'ini ko'rsatishga o'rgatish zarur.

Haykal bolalarga kompozitsiyani o'rgatish uchun katta imkoniyat ochib beradi. Ko'p figurali kompozitsiyalarni qarab chiqishda bolalarga predmetlar orasida o'zaro bog'lanish mavjudligi to'g'risida so'zlab beriladi va bu bog'lanishni ko'ra bilishni hamda ularni mustaqil ravishda supachaga joylashtirib chiqish o'rgatiladi.





Bolalarni kichik haykallar va amaliy san'at namunalari bilan tanishtirishni, har xil materiallardan ishlangan haykalchalar ko'rgazmasini tashkil qilishdan boshlash mumkin. Bolalar uni tomosha qilib bo'lganlaridan keyin ular bilan haykal nima ekani, uni kimlar yasashi va qanday materialdan yasalishi haqida suhbat o'tkaziladi. Bolalar monumental yoki maktab yaqinidagi haykallarni tomosha qiladilar.

Haykal o'zining chuqur mazmuni, tasviriy vositalari orqali bolaning ongini boyitadi, bolada badiiy didning dastlabki asoslarini paydo qiladi.

Bolaning, hatto eng oddiy haykalni yasashi ham ijodiy jarayondir. Chunonchi, loyning sharsimon bir bo'lagi aqli zaif o'quvchida koptok, olma bo'lib tuyuladi. Ish vaqtida bola loyni turli shaklga solib o'ynar ekan, uning yumshoqligidan zavqlanadi, o'zi yasagan o'yinchoqqa qarab xursand bo'ladi. Shu bilan birga bola loy va plastilinning turli xossalarini anglab yetadi, hajmli shakl, predmetni tuzilishi bilan tanishadi, qo'lni aniq harakatlantirishga, ko'zi bilan to'g'ri mo'ljal olishni o'rganadi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash darslarida o'qituvchi oldiga: bolalar ijodkorligini rivojlantirish, ularda tasviriy hamda texnik ko'nikmalar hosil qilish vazifalari qo'yiladi. Qo'l mehnati o'quvchini kasb-hunarni o'rganish maqsadini ko'zlagan holda tashkil etiladi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash jarayonida bolalarda mehnat malakalari va yeng shimarib ishlash, ish o'rnini ozoda va tartibli saqlash, aylanadigan doirali dastgohdan foydalanish ko'nikmasi hamda predmetni hamma tomoniga ishlov berish zarurligi haqidagi tushuncha hosil bo'ladi.

Loy va plastilin bilan ishlash qo'l barmoqlaridagi mayda muskullarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bolani barmoqlar uchi bilan ishlashga o'rgatadi. Qo'l barmoqlarini bukiluvchan va shakllarni yaxshiroq sezadigan qiladi.

### **Dars uchun kerakli materiallar va jihozlar**

Kulolchilik eng qadimgi kasblardan bo'lib, juda qadim zamonlardan odamlar loydan yasalgan buyumlarni ishlatib keladilar. Loydan idish-tovoq, devoriy plitkalar, tomni yopish uchun cherepitsalar tayyorlanadi. Loy tuproq massasi bo'lib, suvga aralashirilgach plastik materiallarga aylanadi. Loy va plastilindan buyumlar yasash mavzusi 1-sinf danoq boshlanadi. Plastilin biroz ishlatilganda ham loychalik yumshoq bo'lmaydi. Bolaga o'yinchoqlar yasashni o'rgatishda loy asosiy material sifatida o'quvchiga predmetlar formasining yaxlitligini tushunish imkonini beradi.





Plastilindan 2–3-sinflarda, o‘quvchining qo‘llaridagi mayda muskullari yetarli darajada rivojlanganda foydalanish lozim.

Ko‘p o‘qituvchilar loy topolmay qiynaladilar. Aslida bu unchalik qiyin ish emas. Bir marta yaxshi loy qorib qo‘yilsa, u butun yil davomida ishlatishga yaraydi.

Loy qorishga tarkibida qum ko‘p bo‘lgan tuproq yaramaydi. Bunday loy tez uvalanib ketadi. Loy hosil qilish uchun tuproqqa aralashgan cho‘p-xaslar, toshlar va metall zarralari tozalanadi. Buning uchun tuproqni bolg‘acha bilan urib maydalanadi. Idishga solib, ustidan to ataladek massa hosil bo‘lguncha suv quyiladi. Bu massa 1–2 kun turadi so‘ngra boshqa idishga massa g‘alvirdan o‘tkazib ag‘dariladi. G‘alvirdagi axlat to‘kib tashlanadi. Suyuq loyni qotirish uchun issiq joyga qo‘yiladi. Bu loyni polietilen xaltada yil davomida saqlash mumkin. Faqat vaqti-vaqti bilan ustiga suv sepib turish kerak. Loydan yasalgan buyumlarni mufel pechida quritish mumkin. Buning uchun, avvalo, buyum 1–2 hafta mobaynida uy haroratida, keyin pechda 2–3 soat mobaynida quritiladi.

Loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasash uchun zarur jihozlardan biri uzunligi va yo‘g‘onligi har xil cho‘plar – karkaslardir. Shuningdek, haykaltaroshlarning qalamchalaridan – bir uchi o‘tkirlangan va ikkinchi uchi dumaloqlangan kurakcha hamda sirtmoq shaklidagi cho‘plardan iboratdir.

Qalamchalar yordamida shakldagi ortiqcha loylar olib tashlanadi, unga izlar tushiriladi. Loy va plastilin bilan ishlashda har bir o‘quvchiga taxtachalar berish kerak. Bola taxtachani stol ustiga qo‘yib, ishni uning ustida bajaradi.

Bolalar 1-sinfda loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasashlari elementar operatsiyalar hisoblangan. Asosiy harakatlarni hamda ularning aniq nomini: yoyish, yumaloqlash, cho‘zish, ezish, bukish, birlashtirishni bilib olishlari kerak. Ba‘zan predmetning u yoki bu shaklini yasayotganda (masalan, oval shaklidagi narsalar — tuxum, bodring, nok) bir necha usullarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Bunda avval loy yumaloqlanadi, keyin biroz ezib va cho‘zib aniqroq formani hosil qilish uchun unga barmoqlar bilan ishlov beriladi. Bolalarga u yoki bu predmetni yasash taklif qilinadi va har bir texnik usul alohida ko‘rsatib beriladi. O‘qituvchi bu usullar qanday atalishini aytadi.

Ko‘p bolalar loyni yumaloqlashda qo‘llar harakati kuchining me‘yorini bila olmaydilar. Shuning uchun juda bo‘sh yumalatadilar va hech narsaga erisholmaydilar yoki qattiq kuch bilan yumalatib, loyni taxtachaga chaplab yuboradilar. Bunda o‘qituvchi tayyorlagan tayoqchani yumalatib ko‘rish taklif qilinadi. 1-sinfda loy va plastilindan eng oddiy predmetlarni: silindr shaklidagi tayoqcha, bodring, yumaloq shakldagi – koptok, olma, yassi shakldagi – chalpak, non kabilarni yasash o‘rgatiladi. Yasash uchun tavsiya etish ma‘qul bo‘lgan





ikkinchi predmet – qo‘ziqorin. Qo‘ziqorin 2 qismdan: disk – soyabon va silindr oyoqchadan iboratdir. Bu shakllarni bolalar 1-chorakda bajarganliklari uchun qo‘ziqorinni bemalol yasaydilar. Yasagan o‘yinchoq‘i chiroyli chiqsa, bolada faoliyatga katta ehtiyoj bo‘ladi. O‘qituvchi shuni hisobga olib, ularga bitta emas, balki bir nechta olma, bodring, sabzi, qo‘ziqorin yasashni taklif qilishi kerak. III chorakda ingichka qilib yumaloqlangan loy (plastilin)dan bolalar harflar, raqamlarni yasaydilar. Yasalgan harflardan so‘zlar tuzish (unli va undosh harfni qizil va ko‘k rangli plastilindan), ularni o‘qish tavsiya etiladi. Ta‘limning bu bosqichi bolalarga bir formani boshqa predmet hosil qilishi uchun o‘zgartirishni o‘rgatishdan iborat. Bunday topshiriqda dumalatish usulini mustahkamlash va silindr formasining uchlarini birlashtirish mashqlarini nazarda tutiladi.

Bolalar asosiy shakllar (shar silindr) yasashni, ularni yaratish texnikasini bilib olganlaridan keyin shaklan bir xil, lekin kattaligi har xil 2–3 qismdan iborat murakkab predmetlarni yasashga o‘tishi mumkin. Bular asosi sharsimon va silindirsimon shakllardan iborat (jo‘ja, o‘rdakcha, quyoncha, qushcha kabi jonivorlarni ifodalaydigan, qorbobo, yotmasvoy (vanka-stanka) kabi kishilarni ifodalaydigan, minora, samolyot, zinapoya kabi geometrik shakllarni ifodalaydigan o‘yinchoqlardir. Jonivor o‘yinchoqlar yasashda bolalar loyni har xil 3 bo‘lakka (katta qismi – tana, kichikroq qismi – bosh, eng kichik qismi dum va quloq uchun ajratishni hamda alohida bo‘laklardan yaxlit narsa yasashni o‘rganadilar.

2-sinfidagi darslar loy va plastilindan buyumlar yasash texnikasini yanada murakkablashtirish bilan bog‘liqdir. Unda bolalar kattaligi va shakli har xil bo‘lgan 3–4 qismdan iborat predmetlarni yasaydilar, ham qo‘l kaftlari, ham barmoqlari bilan ishlashni o‘rganadilar.

Minora shaklini yasashda materialni bir-biridan tobora kichrayib boradigan 4 qismga bo‘ladilar. Shundan keyin birin-ketin uchta sharchani yumaloqlab yasaydilar, ularning birini ustiga birini qo‘yib, biroz bosib qo‘yadilar. Shu tariqa qismlar birlashtirilgach, ular ustiga qubba yasaladi (qubbani bolalar xohishiga qarab konus, shar shaklida yasash mumkin).

IV chorakda ertak asosida sujetli o‘yinchoqlar yasash darslarida o‘qituvchi asarning nomini aytadi (masalan, «Bo‘g‘irsoq» ertagini olaylik), asar sujeti esga solinadi. O‘qituvchi bola bilan birga sujet mazmunini aniqlashtiradi. «Bo‘g‘irsoq quyonna uchratib qoldi» epizodi yasashda quyon bilan bo‘g‘irsoq ashula aytayotganini obrazli tarzda qanday ifodalash mumkinligini tushuntiradi.

Shunday qilib, bolalar avvalo o‘zlari nima yasashlari kerakligini aniq tasavvur etishlari, bu ish o‘qituvchining so‘zlaridan yetarli darajada aniq anglashilishi kerak.



## Qog'oz bilan ishlash

Dasturga muvofiq «Qog'oz bilan ishlash» bo'limi sinflar va chorak bo'yicha quyidagicha taqsimlangan.

Sinflar	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	Yil davomi
1-sinf	4	4	6	6	20 soat
2-sinf	6	6	6	6	24 soat

Ko'rib turganimizdek qog'oz bilan ishlashga ko'p vaqt ajratilgan. Chunki qog'oz turli buyumlar yasash uchun eng yaxshi ashyodir, qog'oz oson shaklini o'zgartiradi, uni buklash, yirtish, qirqish, bo'yash, yelimlash, o'rash mumkin.

### Birinchi sinfda qog'oz va karton bilan ishlash

Qog'ozni egib taxlash, buklash yo'li bilan ko'pgina qiziqarli va foydali narsalar tayyorlash mumkin. O'quvchilar ishning quyidagi usullarini o'zlashtirishlari: o'rta chiziq bo'yicha qog'oz varag'ini buklab qo'yish, ikkiga, to'rtga bo'lish, qog'ozni burchagidan burchagiga taxlash, burchaklarni yozib to'g'rilash, o'rtasidan chetlari tomon tekislagich bilan silliqlash, bukilgan joyidan qog'ozni yirtish. Bolalar ishning ana shu usullarini bajara borib shakli bo'yicha qog'oz varag'ini ajrata bilishga odatlanadilar.

### Konvert

#### I. Ko'zlangan maqsad

a) o'quv maqsadi: o'rta chiziq bo'yicha varaqni ikkiga buklash usulini mustahkamlash, varaqni eniga 4 ga buka bilish, burchaklarni bukish, o'lchagich bilan ishlash;

b) tuzatuvchi-tarbiyalovchi maqsad: fazoda mo'ljal olish, qo'l muskullarini rivojlantirish, ikkala qo'lning mos ishlashi, o'qituvchining og'zaki tushuntirishi va ko'rsatishiga ko'ra ishni rejalashtirish.



II. Darsning moddiy va ko'rgazmali didaktik jihatdan ta'minlanganligi: 21x30 sm o'rov qog'oz, yozuv qog'oz, turli o'lchamdagi muqovabop, o'rov qog'ozlari qisqichlar, tekislagich, o'lchagich, qalin qog'oz parchasi.

III. Ish o'rnini tashkil etish.

IV. O'rganilgan ish usullarini mustahkamlash.

V. Yangi materialni tushuntirish. Buyum – operatsiya xaritasiga, o'qituvchining og'zaki tushuntirish va ko'rsatishiga oid ishni rejalashtirish.

VI. Varaqni bo'yiga 4 qismga bo'lish, o'lchagich bilan ishlash, burchaklarni bukish mashqlari.

VII. Ish natijalarini tekshirish, xatolarini aniqlash va tuzatish.

O'quvchilarni jalb qilgan holda bajarilgan ishga baho berish.

### **Archa o'yinchoqlari va bezaklari**

Archa o'yinchoqlari va bezaklarni hozirlash bilan yangi yil bayramiga tayyorgarlik boshlanadi. Yelim ishlatib, qog'ozdan buyumlar yasagan chog'da o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan rejalash va qog'ozga ishlov berish, varaqni ikkiga buklash, o'lchagich bo'yicha chetlarini egish, turli usullar bilan bo'laklarni birlashtirish usullaridan foydalanadilar, asbobni ushlash mahoratini mustahkamlaydilar, kesuvchi asboblardan va yelim bilan ishlash xavfsizligi qoidalarini takrorlaydilar. Ana shu buyumlarni tayyorlash chog'ida o'qituvchi e'tiborni materiallardan oqilona foydalanishga, tejab rejalashga, shundan keyingi ish uchun material qoldig'idan foydalanishga qaratish kerak. Simmetrik kesib olish usullari mustahkamlanadi: bolalar o'rnatilgan chegaragacha belgilangan chiziq bo'yicha qaychi bilan kesishni o'rganadilar.

### **Applikatsiya**

Tag (asos) bo'lib xizmat qiladigan materialga qog'oz, teri, gazlama yoki plastmassa bo'laklarini yopishtirish yoki tikish yo'li bilan bajarilgan ishlar applikatsiya, deb ataladi.

Yordamchi maktabda qo'l mehnati darslarida rangli qog'oz – jilosiz, yaltiroq silliq qog'oz applikatsiya ishlarini bajarish uchun material bo'lib xizmat qiladi. Yopishtiradigan tarkib bilan chap tomondan surilgan gumminli qog'oz ancha qulay material hisoblanadi. Bolalar bu tarkibni nam cho'tka bilan qog'ozga surishsa, u yopishib qoladi. Rangli qog'oz bo'lmagan taqdirda yorqin rangli daftar muqovasidan foydalanish mumkin. Applikatsiya ishlarini bajargan chog'da silikatdan foydalanish yaramaydi.





Applikatsiya ishlarini bajargan vaqtda bolalar to'g'ri va egri chiziqlar bo'yichagina emas, balki ancha murakkab konturlar bo'yicha ham qaychi bilan kesish usullarini, simmetrik shakl kesib olish qoidalarini o'zlashtiradilar, materiallarni tejab va oqilona ishlatishni o'rganadilar.

Applikatsiya uchun chiqindilar va turli materiallardan foydalanish tejamkorlikni va oqilona iqtisod qilishni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar o'z ishlarini rejalashtirishni, applikatsiya qismlarini qog'ozga to'g'ri qo'yishni o'rganadilar. Bu ish o'quvchilarda badiiy didni, rang va shakl ahamiyatini tushunishda yordam beradi, hajmiy geometrik jismlar va ularning tekis tasvirlarini to'g'ri idrok qilishga o'rgatadi. Masalan, archa ustma-ust kiyim kiygan geometrik uchburchaklarga o'xshaydi, qorboboning tasviri turli diametrli doiralardan iborat va hokazo.

«Katta», «kichik», «baravar qismlar» tushunchalari mustahkamlanadi. Applikatsiya ayrim buyumlarni pardoqlash uchungina emas, balki matematika, ona tili, nutqni rivojlantirishga doir turli qo'llanmalar tayyorlash uchun ham foydalaniladi. Bolalar qaychi bilan ishlash, motorikani har ikki qo'l harakatlarining mosligini (bir qo'l qog'ozni ushlaydi, ikkinchisi kesadi) rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan yirtib applikatsiya yasash juda qulay, bolaga oson bo'lib, ayniqsa qaychi bilan ishlashga imkoni bo'lmagan bola uchun mos keladi. Bu ish quyidagicha bajariladi: o'qituvchi rangli qog'ozga biror predmetni (masalan, daraxt) rasmini chizadi. Bolaga bu predmet atrofidan ohista yirtib chiqish ko'rsatiladi. Yirtib olingan shakl asosga yopishtiriladi. Bu usulda sujetlar hosil qilish mumkin. Bu ishda sinfni gruppalariga ajratib bajarish, har bir shaklni alohida bir o'quvchiga berib oxirida shakllarni yig'ib sujetli kompozitsiya hosil qilinadi.

### O'quvchilar tayyorlaydigan buyumlar

«Qog'oz parchasida naqsh» (kitob uchun xatcho'p) applikatsiyasi.

O'quvchilarning partasi ustida 3 ta qog'oz parchasi: oq va ikkita rangli qog'oz parchasi turibdi. Oq parcha rangli parchadan kengroq, uning uzunligi kitob uzunligiga teng. Rangli parchalar shunday hisoblanib chiqilganki, ulardan oq parchada joylasha oladigan 6 ta kvadratcha hosil qilsa bo'ladi.

**Asboblari:** qaychilar, yelim, cho'tkalar, tagiga qo'yish uchun qog'oz.

**Ko'rgazmalilik:** tayyor xatcho'plar, naqsh va ishni bajarish bosqichlari aks ettirilgan plakat, yarimfabrikatlar.

**Ish usullari:** burchak bukilib, belgilangan chiziq bo'yicha kesiladi, qog'oz parchalari ikkiga buklanadi, naqsh hosil qilinadi, qog'ozga yelim surtiladi, yelim bilan yopishtiriladi.





Ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga kvadratlardan applikasiya bilan bajarilgan xatcho'plarni ko'rsatadi. U buyumni ko'rib chiqib, ana shu shakllar bolalarga tanishmi yoki yo'qligini, bolalar buyum (xatcho'p)ning nomini va uning qo'llanishini biladilarmi yoki yo'qligini aniqlaydilar. O'qituvchi kitoblarni ehtiyot qilib saqlash to'g'risida, ularning betlarini bukmaslik kerakligi haqida suhbat o'tkazadi. Kitobni qancha yaxshi saqlansa, uni shuncha ko'p kishi o'qiydi. Kitobdan kerakli betni topish uchun sahifalar o'rtasiga qog'oz parchasi qo'yiladi. Ana shunday qog'oz parchasi xatcho'p deyiladi.

O'qituvchi xatcho'plarning bir nechta namunalarini ko'rsatib, ulardan birini doskaga mahkamlab qo'yadi. O'qituvchi bolalar bilan birga zarur material va asboblarni belgilab, ishga kirishishga ruxsat beradi. Bolalar kvadrat hosil qilish tartibini takrorlab, rangli qog'oz parchalarini kvadratchalar qilib kesadilar. O'qituvchi qatorlar orasidan yurib o'tib, topshiriqni uddalashda bolalarga yordam beradi. Kvadratchalar kesilgandan keyin o'qituvchi oq qog'oz parchasini bo'yiga ikki buklab, bukish chizig'ini sal silashni taklif qiladi. Parcha tekislanadi, unda parchadagi bukish chizig'iga to'g'ri keladigan qilib joylashtiriladi. So'ngra chetki kvadrat taglik ustiga qo'yiladi, o'rtasidan chetiga qarab yelim surtiladi, oq qog'oz parchasida to'g'ri joylashtiriladi, latta bilan sal silanadi. Qolgan barcha kvadratlar shunday izchillik bilan yopishtirib qo'yiladi.

Navbatdagi darsda naqshni ikki geometrik shakldan hosil qilish mumkin. Masalan, egri chizig'i bo'yicha hosil qilingan kvadratni kesib olib, uchburchaklardan yasash mumkin. Keyinchalik xatcho'pni aralash shakllar (kvadratlar, uchburchaklar, to'g'riburchaklar)dan applikasiya bilan bezash mumkin.

### **«Qorbobo» applikasiyasi**

Materiallar, asboblari va moslamalar, fon uchun rangli qog'oz (to'q qora, ko'k, havorang), oq qog'ozdan qilingan turli o'lchamdagi andozalar, qaychilar, yelim, qalamlar, to'shama, artish uchun lattalar.

Ishni bajarish vaqtida bolalar turli o'lchamdagi andozalar bilan ishlash usullarini bilib oladilar, buyum shaklini to'g'ri tasvirlashni, uning ayrim qismlari va buyumning o'zini makonda joylashtirishni o'rganadilar.

Dars «Qorbobo» applikasiyasi bo'yicha savol-javob suhbatidan boshlanadi. O'qituvchining taxminiy savollari quyidagicha: rasmda yilning qaysi vaqti haqida hikoya qilinadi? Biz o'z rasmimizda qorboboni qanday tasvirlashimiz mumkin? Biz doiralarni qanday kesib olamiz? Har bir doirani ham kvadratga qo'yish mumkinmi? Shundan keyin o'qituvchi sinfdagilarga quyidagi topshiriqni: har bir





kvadrat uchun doira tanlab, uning atrofini qalam bilan chizib chiqish topshiriladi. Lekin kesishdan avval kvadratni 4 qismga bukib taxlash mumkin.

Taxlash usulini o'qituvchining o'zi namoyish qiladi. Belgilangan chiziqlar bo'yicha birdaniga 4 ta burchak kesiladi. Vujudga keltirilgan doiraga yelim suriladi, Qorbobo hosil bo'lishi uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan birga doiralarni yelim bilan yopishtirish joylarini belgilaydi. Ishni bajarishning to'g'riligi tekshiriladi. Tayyor buyumlarni o'qituvchi baholaydi. Bolalar ishni yaxshi uddalagan bo'lsalar, endi zamburug' yasash mumkin. Ishni bajarishning hamma bosqichlarini o'qituvchi doskada namoyish qiladi.

## 2-sinfda qog'oz va karton bilan ishlash

O'quvchilarning qog'oz va kartonga ishlov berish bo'yicha birinchi sinfda olgan mahorat va malakalarini mustahkamlash va kengaytirish ishlari ikkinchi sinfda davom ettiriladi. O'quvchilar qog'oz va kartonga ishlov berishda yangi mahorat va malakalarni o'zlashtiradilar, qog'oz va kartonning yangi navlarini tayyorlash texnologiyasi hamda sanoatda va turmushda ulardan foydalanish sohasidagi bilimlarni kengaytiradilar.

O'quvchilar ikkinchi sinfda qog'oz va kartonni rejalagan chog'da chizg'ich va andoza bilan ishlash usullarini, andozaning tashqi va ichki konturi bo'yicha rejalashni, ikki nuqta o'rtasida qirqilgan qirra bilan parallel ravishda to'g'ri chiziq o'tkazish usuli bilan chizg'ich bo'yicha qog'oz va kartonni rejalashni o'zlashtiradilar, oqilona rejalash usullarini hamda o'lchamni noldan hisoblashni o'rganadilar.

O'quvchilar kartonning butun yuzasi bo'ylab qog'ozga yelim surish usullarini o'zlashtirishlari lozim. Karton va qalin rangli qog'ozdan yapaloq va katta hajmli archa bezaklarini tayyorlash, murakkab shakldagi andozalar bo'yicha qog'oz va kartonni rejalash bilan tanishadilar.

2- sinfda darslarni qog'oz va karton haqida, qog'oz navlari va ularning xossalari to'g'risida birinchi sinfda olingan bilimlarni takrorlashdan boshlash zarur. Andoza bo'yicha kolleksiya tuzgan vaqtda qog'oz varag'i kataklarga bo'linadi, ularning har biriga namuna yopishtiriladi. Shundan keyingi mashg'ulotlarda bolalar andoza bilan qog'ozni andoza va chizg'ich bilan rejalash usullarini bilib oladilar.

**Hisoblash materiali:** loto, sabzavot va mevalar.

Bu mashg'ulot «Sabzavot va mevalarning o'ziga qarab rasmini solish» mavzusidagi rasm darsidan keyin o'tkaziladi.

**Materiallar:** asboblar, moslamalar, rangli qog'oz, kartochna uchun rangli qog'oz, yelim, qaychilar, chizg'ichlar, to'shama, artish uchun ishlatiladigan latta.







**Ish usullari:** chizg'ich bilan ishlash, chizg'ich bo'yicha varaqni rejalash, egri va to'g'ri chiziqlar bo'yicha qaychi bilan kesish, mavjud namunalar bo'yicha sabzavot va mevalarning rasmini qo'lda solish.

O'qituvchi bolalar bilan birga lotoning bo'laklari (detallarini) ko'rib chiqib, bularda tushirilgan sabzavot va mevalarning nomlarini aniqlaydi, loto o'yini chog'ida hisoblash usullarini ko'rsatib, ishlash uchun zarur bo'lgan asboblarni tarqatadi, ishni bajarish tartibini, usullarini belgilaydi.

Ish chizg'ich bo'yicha varaqni rejalashdan boshlanadi. Rejalash uchun chizg'ichdan foydalanish oldidan burchaklik (guniya) bilan albom varag'i burchaklarini tekshiradilar. Agar to'g'ri burchak varaq burchagiga to'g'ri kelsa, u vaqtda satriklar ham mos keladi. O'qituvchi guniya bilan ishlashning hamma usullarini doskadagi qog'oz varag'ida namoyish qiladi. Guniyani varaqning bo'yiga va eniga uning tomonlaridan bir burchagi varaqning chetidan harakat qiladigan tarzda surib, kvadratchalarda varaqqa reja chizig'i chiziladi. O'lcham noldan boshlanib hisoblanishini bolalarga bir necha marta eslatib o'tish zarur.

Birinchi varaqni o'qituvchi sharhlar bilan birga o'zi rejalaydi, ikkinchi varaqni bolalar mustaqil ravishda o'zlari rejalaydilar, qiynalganlarga yordam beriladi. Ishning navbatdagi bosqichi – yelim bilan yopishtirish uchun sabzavot rasmlarini tayyorlashdan iborat. Bolalar turli rangdagi qog'ozda sabzi, lavlagi, bodring, pomidor va shu kabilarning tashqi ko'rinishini chizadilar, so'ngra esa ularni kesib olib, rasm chizilgan varaqlarning biriga yelim bilan yopishtiradilar. Ikkinchi varaq to'g'ri chiziqlar bo'yicha kesilib, har bir kvadratga tegishli raqam yoziladi. Kesib olingan sabzavot rasmlarini kvadratlarga yelim bilan yopishtirgan chog'da bolalarga ish usullarini tushuntirish zarur, bunda oldindan kesib olingan sabzavot rasmlarini o'lchamlarini va ularni joylashtirish, ayniqsa 8, 9, 10 raqamlari bo'lgan kvadratlarda joylashtirish imkoniyatini aniqlash lozim. Sabzavot va meva rasmlarini ana shu raqamlar bo'lgan kvadratchalarga yelim bilan yopishtirilgan chog'da ularning kichik o'lchamlari olinadi.

Bunda bolalar «katta-kichik» tushunchasini bilib olishadi.

### **Qalin rangli qog'ozdan ikki buklangan va uch-to'rt qismdan iborat bo'lgan hajmiy shakldagi buyumlar**

Archa o'yinchoqlari (fonuschalar, raketalar, gullar).

Materiallar, asboblari, moslamalar.

**Ko'rgazmalilik:** turli rangdagi qog'ozlar, qaychilar, andozachalar, yelim, cho'tkalar, iplar, to'shama, toza latta, har xil shakldagi tayyor shakllar, doskada ishlash uchun ba'zi shakllarning ayrim bo'laklari.





**Ish usullari:** andozacha bo'yicha rejalash simmetrik shakl kesish ( oyna va o'q simmetriyasi bilan ) ayrim bo'laklarni yelim bilan yopishtirish usullari ilmoqni mahkamlash.

O'qituvchi buyumlarning namunalarini ko'rib chiqib, bo'laklar, ular tarkibi, sonini, shaklini, rangini aniqlab, o'quvchilarga ishlash uchun zarur materiallar va asboblarni aytib berishni taklif qiladi, ish rejasi belgilanadi. Partalarning ustida shakllarning yarmini aks ettiruvchi andozachalar bo'ladi. O'qituvchi kesib olingan har bir qismining bo'yalmagan yarmiga yelim surishni va ikkinchi qismining bo'yalmagan yarmi bilan yopishtirilishini tushuntiradi. Rangli qog'ozning yarimlari bukish chizig'igacha bo'yalmagan tomoni bilan ichiga qaratib, ikki bo'lib yelim bilan yopishtiriladi. Bo'laklar o'zaro birlashtiriladi. Shaklchadagi bunday qismlar bir necha marta bo'lishi mumkin. Yopishtiriladigan yarimtalar o'rtasida ipdan qilingan ilmoq joylashtiriladi. Shakllar katta bo'lsa, uni applikatsiya bilan bezash mumkin.

### **Tabiiy materiallar bilan ishlash**

Bolalar sevib yig'adigan va bajon-u dil undan turli narsa, o'yinchoqlar yasaydigan xomashyo xazina bu tabiiy materiallardir. Tabiiy materiallar – igna bargli daraxtlarning g'uddasi (shishka), barglar, yong'oq, ildiz, makkajo'xori so'tasi, somon va boshqa qo'l mehnati uchun ajoyib materialdir.

Yordamchi maktab qo'l mehnati darslarida tabiiy materiallardan narsalar yasash uchun salmoqli vaqt berilgan. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning tasavvurini kengaytiradi, ijodiy fantaziyasini boyitadi, tabiat bilan bolani yaqinlashtiradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash boladan chidamni, barmoqlarning aniq harakatini talab qiladi. Dastlabki vaqtlarda bola barmoqlari nozik harakatlarga o'rganmagani uchun buzib qo'yishi mumkin. Lekin muntazam olib borilgan ish mayda qo'l muskullarini rivojlantiradi, qo'llar aniq ishlay boshlaydi. Qo'l mehnati darslari bolani sensomotor rivojlanishi – qo'l va ko'zning birga ishlashiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida yozuv ko'nikmalarini osonroq bilib olishga olib keladi.

Tabiiy materiallarni yig'ish uchun o'qituvchi bolalarni ekskursiyaga olib chiqadi. O'qituvchi bolalarni tevarak-atrofga e'tibor bilan qarashni taklif qiladi. Ularga qanday narsalarni yig'ish mumkinligini ko'rsatadi. O'qituvchi daraxtlarga, o'tlarga zarar yetkazmaslik, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Yig'ilgan material sinfga keltirilgach saralanib, alohida qutichalarga joylanadi.

Terilgan barglarni ikki varaq qog'oz orasiga joylashtirilib, ustidan bostirib qo'yiladi. Shoxchalarni bog'lam qilib, ip bilan tugib qo'yish mumkin. Joludlar va





g'udda (shishka) lar ma'lum vaqt o'tgach qurib qoladi. Shu tufayli ularni ishlatishdan oldin (3–5 soat) suvga ivitib qo'yish kerak.

Har qanday ishni boshlashdan oldin material bolalarga ko'rsatiladi. Undan nima yasash so'raladi. Shundan keyin o'qituvchi tayyorlanishi kerak bo'lgan buyumning namunasini ko'rsatadi va bolalar bilan birga ishlaydi. Detallarni qanday biriktirish kerakligiga bolalarni diqqati qaratiladi, buyumni tayyorlashdan qanday asboblardan foydalanish kerakligi, texnika xavfsizligi qoidalari takrorlanadi.

Odatda bolalar tomonidan tayyorlangan buyumlar, o'yinchoqlar uncha pishiq bo'lmaydi, tez buziladi. Ular tomonidan bajarilgan o'yinchoqlarni iloji boricha uzoqroq saqlashga harakat qilish kerak. O'qituvchi bolalar ishini terib qo'yishi uchun oldindan biror maket tayyorlab qo'yish mumkin (masalan, o'tloq, o'rmon, hayvonot bog'i shakli). Bolalar unga o'zlari tayyorlagan ishlarini terib qo'yadilar, solishtiradilar va baholaydilar.

Tabiiy materiallar bilan ishlaganda loklash ishlari o'qituvchi tomonidan bajarilishi kerak.


Tabiiy materiallar bilan ishlashni oson bajariladigan material – o'simliklardan boshlash kerak. Shu tufayli qo'llanmada birinchi sinf uchun barglardan yasashga ko'p o'rin beriladi. Ish boshlashdan oldin o'qituvchi namunani ko'rsatadi, uni qanday materialdan yasalganini, bu materialni o'rniga qaysisini almashtirish mumkinligini tushuntiradi. Ish bajarish bosqichlari, bo'laklarni qanday birlashtirish mumkinligini (plastilin, yelim, sim bilan ) aniqlaydi.

Agar o'yinchoq bo'laklari shoxchalar yordamida biriktirilsa (masalan, hayvon tanasi va kallasi shox bilan biriktirilsa) unda bigizdan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunda bigiz bilan teshikni o'qituvchi teshib berishi kerak.

Bolalar namunaga qarab, o'yinchoq yasashni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyin, asta-sekin rasmga qarab, o'yinchoqlar yasashga o'rgatiladi.



## QO‘L MEHNATI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN MASHQLAR



Kichik maktab yoshidagi bolani ish holati tez toliqtiradi. Shu tufayli qo‘l mehnati darslarida bolani, albatta jismoniy mashqlar, bilan tetiklantirib turish zarur.

O‘quvchi qo‘l mehnati darslarida bir joyda ishlagani uchun tez charchaydi. Bunday vaqtlarda, albatta, o‘quvchilar jismoniy mashqlar qilib qo‘l oyoqlarini harakatlantirishlari kerak. Mashqlarni ashula va musiqa yordamida bajarilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyidagi bajariladigan kompleks mashqlar dars davomida charchoqni tezroq chiqarishga yordam beradi, qon aylanishi va nafas olishni yaxshilaydi:

1. Dastlabki holat. Oyoqlar yelka kengligida ochilgan va qo‘llar yonga tushgan. 1–2–qo‘llarni yonga, yuqoriga ko‘tarish, nafas olish.

3–4–qo‘llarni yonga, pastga tushirish, nafas chiqarish.



2. Dastlabki holat. Oyoqlar yelka kengligida ochilgan va qo'llar belda.

1–2–gavdani chapga bu-rish, nafas olish.

3–4–oldingi holatga qay-tish, nafas chiqarish.

Ushbu mashqni gavdani o'ngga burgan holda qay-tarish.



3. Dastlabki holat. Oyoqlar yelka kengligida ochilib, qo'llar belda.

1–2–oldinga egilish, nafas chiqarish.

3–4–dastlabki holatga qay-tish va nafas olish.



4. Dastlabki holat. 1–2–3–4–qo'llar belda turgan joyda tizzalarni yuqori ko'targan holda qadamlash (yurish), Turgan joyda qadam bosish, nafas olish ixtiyoriy.



5. Dastlabki holat. 1–2–o‘ng oyoqni yonga cho‘zib tovonda turish. Qo‘l yuqoriga, gavdani o‘ngga egish.

3–4–oldingi holatga qaytish.

Mashqni xuddi shu holatda chap tomonga bajarish. Ixtiyoriy nafas olish.



6. Dastlabki holat.

1– o‘ng oyoqni yonga cho‘zib tovonda turish, qo‘llar yelkada.

2 – gavda og‘irligini o‘ng oyoqqa tashlash, qo‘llar yonga.

3 – gavda og‘irligini chap oyoqqa tashlash, qo‘llar belga.

4 – oldingi holatga qaytish, nafas olish ixtiyoriy.



Har qaysi mashqlar 3–4 martadan qaytariladi. Bir necha kundan keyin kompleks mashqlar to‘liq yoki qisman o‘zgartiriladi.



# MUNDARIJA

## 1-SINF

Loy va plastilindan narsalar yasash .....	9
Ish uchun kerak bo'ladigan ashyolar (material) va asboblari .....	9
Ish joyini tashkil qilish .....	10
Loy tayyorlash .....	10
O'yinchoq yasash usullari .....	11
Tabiiy materiallar bilan ishlash .....	18
Ish uchun kerakli materiallar .....	19
Qog'oz bilan ishlash .....	27
Archa o'yinchoqlari yasash .....	36
Ip bilan ishlash .....	43

## 2-SINF

Qo'l mehnati darslarida kerakli asbob va moslamalar .....	50
Loy va plastilin bilan ishlash .....	51
Tabiiy materiallar bilan ishlash .....	58
Qog'oz bilan ishlash .....	65
Yozuv qog'ozidan qor parchalari yasash .....	72
Tekis qog'oz bo'lagidan hajmli o'yinchoqlar yasash .....	75
Qog'oz o'ramidan hajmli o'yinchoqlar yasash .....	76
Bayram tabriknomasi va taklifnomalar yasash .....	77
Karton qog'ozdan uy jihozlari yasash .....	80
Gazlama bilan ishlash .....	82
Ignaga ip o'tkazish mashqlari .....	87
Tugma qadash .....	89
Qo'l choklari .....	91
Yordamchi maktabda qo'l mehnati darslarining ahamiyati .....	93
Qo'l mehnati darslarida qo'llaniladigan mashqlar .....	108



D 79 **Drozdova G. va boshq. Qo'l mehnati.**  
(Yordamchi maktablarning 1–2-sinflari uchun  
darslik). T.: «ILM ZIYO», 2007 – 112 b.

BBK 37.248 ya 71

**G. DROZDOVA, M. HAMIDOVA, M. HAKIMOVA**

## **QO'L MEHNATI**

**Yordamchi maktablarning 1–2-sinflari uchun darslik**

Toshkent – «ILM ZIYO» – 2007

Muharrir *I. Usmonov*

Rassomlar *Sh. Odilov, I. Xolxo'jayev*

Texnik muharrir *F. Samadov*

Musahhah *F. Temirxo'jayeva*

2007-yil 5-dekabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 84x108  $\frac{1}{16}$ , «Arial» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 7,0. Shartli bosma tabog'i 11,76. 2822 nusxa.

Buyurtma <sup>1</sup>

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnoma <sup>1</sup> 38 – 2007.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom  
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Toshkent, U. Yusupov ko'chasi, 86-uy.

Maktab kutubxonasi jamg'armasiga kiritilgan. Bepul.

